


SAMARQAND VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


(2020-yil yanvar-aprel oylarida)

2020-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 4 475,9 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 6,6 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 032,8 mlrd. soʻmni (oʼsish surʼati 157,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 443,1 mlrd. soʻmni (oʼzgarish surʼati 83,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 350,7 mlrd. soʻm (2019-yilning shu davriga nisbatan 92,1 %) ni tashkil etdi.



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori koʼrsatkich Samarqand shahri (1 603,3 mlrd. soʻm), Urgut (479,7 mlrd. soʻm) va Pastdargʼom (281,1 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʼgʼri keldi. Buning sababi, ushbu hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hamda sanoat tashkilotlarining koʼpligidadir.

**HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO
TOVAR AYLANMASI HAJMI**
(2020-yil yanvar-aprel oylarida) (mlrd. so'm)




**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI (mlrd. so'm, foiz)
(2020-yil yanvar-aprel oylarida)**

Hududlar nomi	Jami	O'zgarish sur'ati, % da	Yirik korxona lar	O'zgarish sur'ati, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	O'zgarish sur'ati, % da
Samarqand viloyati	4 475,9	93,4	1 032,8	157,7	3 443,1	83,3
Samarqand shahri	1 603,3	98,2	955,8	155,1	647,4	63,7
Kattaqo'rg'on shahri	225,2	94,7	0,4	135,3	224,8	94,6
<i>tumanlar:</i>						
Bulung'ur	234,5	94,6	33,5	8,6 m.	201,0	81,2
Jomboy	147,8	85,5	1,6	3,5 m.	146,2	84,8
Ishtixon	172,1	85,0	2,4	59,4	169,7	85,5
Kattaqo'rg'on	173,0	94,3	2,3	3,2 m.	170,7	93,5
Narpay	150,4	91,6	2,0	5,2 m.	148,4	90,6
yanvar-aprel 2020-yil	ULGURJI VA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI					

Hududlar nomi	Jami	o'zgarish sur'ati, % da	Yirik korxonalar	o'zgarish sur'ati, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	o'zgarish sur'ati, % da
Nurobod	161,5	93,4	1,1	5,3 m.	160,4	92,8
Oqdaryo	102,9	87,2	2,2	2,3 m.	100,6	86,0
Payariq	186,0	88,0	2,9	3,4 m	183,1	87,0
Pastdarg'om	281,1	86,9	11,0	71,8	270,1	87,6
Paxtachi	131,3	94,4	1,8	2,8 m.	129,5	93,5
Samarqand	163,1	86,8	2,6	66,9	160,5	87,2
Tayloq	133,9	87,1	1,8	6,7 m.	132,1	86,1
Urgut	479,7	96,2	9,9	99,1	469,8	96,1
Qo'shrabot	130,2	90,4	1,3	4,4 m.	128,9	89,7

2019-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha shahar va tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining pasayishi kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Samarqand, Kattaqo'rg'on shaharlarida va Urgut, Paxtachi, Bulung'ur va Kattaqo'rg'on tumanlarida qayd etildi.

**HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI O'ZGARISH SUR'ATLARI (foizda)
(2020-yil yanvar-aprel oylarida)**




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI (2020-yil yanvar-aprel oylarida)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan 57,7 % ga o'sdi va 1 032,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 23,1 % ulushiga to'g'ri keldi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 3 443,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 16,7 % ga pasaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 76,9 % ga teng keldi, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 350,7 mlrd. so'mni tashkil etib, viloyatdagi ulushi 7,8 % ni tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING TUMANLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda) (2020-yil yanvar-aprel oylarida)



Tahlil natijalariga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,8 %), Nurobod (99,3 %), Qo'shrabot (99,0 %), Jomboy (98,9 %), Kattaqo'rg'on (98,7 %) va Narpay (98,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 23,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (59,6 %), Bulung'ur tumanida (14,3 %) va Pastdarg'om tumanida (3,9 %) kuzatildi.

**MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI ULUSHI, (foizda)
(2020-yil yanvar-aprel oylarida)**

2020-yil yanvar-aprel holatiga chakana savdo tovar aylanmasi 4 475,9 mld. so'm (2019-yilning mos davri bilan solishtirganda 6,6 % ga kamaygan) va mulkchilik shakllari bo'yicha 4 475,3 mld. so'm nodavlat mulki (99,99 %) hamda 0,6 mld. so'm (0,01 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi.

**MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI ULUSHI, (foizda)**

2019-yil yanvar-aprel




2020-yil yanvar-aprel



**CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA SHAHAR
VA TUMANLARNING ULUSHI, (%)
(2020-yil yanvar-aprel oylarida)**

Chakana savdo tovar aylanmasida shahar va tumanlarning ulushini tahlil qilganda Samarqand shahri 35,8 %, Urgut tumani 10,7 %, Pastdarg'om tumani 6,3 %, Bulung'ur tumani 5,5 % va Kattaqo'rg'on shahri 5,0 % bilan yetakchilik qilmoqda. Buning sababi, ushbu hududlarda yirik savdo korxonalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ko'pligidadir. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan.

**CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA SHAHAR
VA TUMANLARNING ULUSHI, (%)
(2020-yil yanvar-aprel oylarida)**



2020-yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 1 152,1 ming so'mni tashkil qilib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 8,5 % ga kamaydi. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning yanvar-aprel oylarida 2019-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida pasayish kuzatilib, shundan eng yuqori ko'rsatkichlar Samarqand shahri (2 930,5 ming so'm), Kattaqo'rg'on shahri (2 510,5 ming so'm), Bulung'ur tumani (1 256,7 ming so'm) va Nurobod tumani (1 076,2 ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Kattaqo'rg'on (634,0 ming so'm), Oqdaryo (646,9 ming so'm) va Samarqand (647,3 ming so'm) tumanlarida qayd etildi. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan.

AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-aprel oylarida)

Hududlar nomi	Ming so'm	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da
Samarqand viloyati	1 152,1	91,5
Samarqand shahri	2 930,5	96,8
Kattaqo'rg'on shahri	2 510,5	93,0

tumanlar:

Bulung'ur	1 256,7	92,8
Jomboy	857,9	83,4
Ishtixon	678,0	83,2
Kattaqo'rg'on	634,0	92,5
Narpay	706,6	89,9
Nurobod	1 076,2	91,7
Oqdaryo	646,9	85,5
Payariq	743,7	86,1

Hududlar nomi	Ming so'm	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da
Pastdarg'om	794,3	85,1
Paxtachi	911,4	92,8
Samarqand	647,3	85,0
Urgut	943,8	93,8
Tayloq	666,0	85,0
Qo'shrabot	990,9	88,4


UMUMIY OVQATLANISH FAOLIYATINING SAVDO AYLANMASI

(2020-yil yanvar-aprel oylarida)


2020-yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,4 % ni tashkil etib, 108,8 mlrd. so'mga yetdi, yoki 2019-yilning mos davriga nisbatan 21,2 % ga pasaydi. Bunda jami savdo aylanmasining 75,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI TARKIBIDA YIRIK HAMDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING ULUSHI (foizda) (2020-yil yanvar-aprel oylarida)

2019-yil yanvar-aprel



2020-yil yanvar-aprel




SAMARQAND VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-aprel oylarida*)


2020-yil yanvar-aprel oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 267,2 mln. so'mni tashkil qildi va 2019-yilning shu davriga nisbatan 89,6 % ni tashkil qildi. Ulgurji savdo aylanmasida yirik va kichik biznes subyektlarining ulushi quyidagi ko'rinishda.

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR HAMDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULUSHI, (%)

2019-yil yanvar-aprel



2020-yil yanvar-aprel



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes subyektlari ■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes subyektlari

Kichik biznes subyektlari hamda yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi (2020-yil yanvar-aprel oylarida)

Hudud nomi	Yirik korxonalar (mln. so'm)	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes subyektlari (mln. so'm)	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da
Samarqand viloyati	626 724,0	94,2	1 640 517,2	72,4
Samarqand shahri	452 808,7	114,3	722 732,4	88,2
Kattaqo'rg'on shahri	83,4	166,7	36 934,2	87,8



SAMARQAND VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Hudud nomi	Yirik korxonalar (mln. so'm)	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes subyektlari (mln. so'm)	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da
<i>tumanlar:</i>				
Bulung'ur	9 962,7	137,4 m.	35 230,0	76,3
Jomboy	150,1	38,6	35 251,3	87,7
Ishtixon	7 192,2	32,1 m.	20 102,5	73,4
Kattaqo'rg'on	402,2	2,8 m.	21 773,4	87,5
Narpay	7 213,1	127,8 m.	5 759,9	46,9
Nurobod	70,0	3,3 m.	4 379,9	87,6
Oqdaryo	81,3	103,0	113 637,7	87,5
Payariq	15 267,8	97,6 m.	65 129,0	87,8
Pastdarg'om	126 296,5	47,3	47 071,3	108,8
Paxtachi	6 672,6	164,9 m.	2 715,4	87,6
Samarqand	206,7	40,1	125 401,9	88,0
Tayloq	53,2	100,1	372 595,7	89,1
Urgut	200,5	107,3	30 279,6	88,0
Qo'shrabot	63,1	43,5	1 522,7	87,6

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra 1 640,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 88,0 % ni tashkil etdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 72,4 % ni tashkil qilmoqda. Yirik korxonalar esa, 626,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 94,2 % ni va ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 27,6 % ni tashkil etdi.

**-dastlabki ma'lumot*

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**
Tel.: 66-230-45-23, 66-235-65-80